

ILM NIMA UCHUN KERAK YOXUD NEGA INSONLAR O'QIYDI?

Abdullayeva Maftunaxon

Andijon Davlati Chet Tillari Instituti talabasi

Odamiy o'rgandi Xaqdin, bildi ilm.

Yetti osmonni charog'on qildi ilm.

Jaloliddin Rumi

Anotatsiya. Ilm borliq yaralgan kundan beri insonlarga xamohang yashab kelayotgan tushunchadir. Asrlar mobanyida insonlar ilm ustida bosh qotirib uning asl mohiyatini anglab yetishga harakat qilib kelishmoqda. Ushbu maqolada Ilmga tegishli bo'lgan mavzu yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Ilm, bilim, din, fan, mantiqiy va tanqidiy fikrlar .

Kirish

Insoniyating aqliy salohiyati rivojlanishi bilan birga unda turli hil savollar paydo bo'la boshladi va bu o'z navbatida ularga tez va samarali yechim topish kerakligini anglatar edi. Insoniyatda eng ko'p muxokamalarga sabab bo'lgan jumboqli savollardan bittasi ILM va BILIM bir hil ma'no anglatadimi yoki buning aksi? Yokida insonga ilm muhimmi yoki ko'nikma (tajriba) muhimroqmi- degan savollarga bir necha yuz yilliklar mobaynida odamzot deya atalmish maxluqotlardan har hil javoblar qabul qilib kelinmoqda, sababi ularning ta'lim tarbiyasi, fikr doirasi, dunyo qarashi va voyaga yetish jarayonidagi omillar sabab desam aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Bu haqda dunyo olimlari ham turli tuman fikr va mulohazlar yuritishgan va ularning fikrlari insonlar tomonidan qo'llab quvvatlangan. Ilm nima uchun kerak yoki bilim olish kerakmi degan savollarga javob izlashdan oldin Ilm ba Bilim tushunchasining asli bir yoki bir emasligini aniqlashtirib olishimiz darkor. Maqoladan asl ko'zlangan maqsad ham shudir. Biz bu savolga quyidagicha javoblar berishni maqul ko'rdik:

Ilm ahli yo'llagan javoblar "Bilim"-so'zi "bilish", "ma'lumotga ega bo'lish", "anglash", "o'zlashtirish" degan ma'nolarni anglatadi. "ILM" esa arab tilidan kirgan. "علوم" ya'ni "ilmun" kalimasi (so'zi) ham "bilish" "ma'lumotga ega bo'lish" mazmunini anglatadi. Mazkur ikki so'zning orasidagi lug'aviy farqi deyarli katta tafovutga ega emas. Lingivistik jihatdan ular biri o'zbekcha va yana biri esa arabcha ekanligidadir. Bu fan nazariyasi qarashlaridir ammo bizga boshqa tomondan bu fikrlarni ikki qismga ajratib yuboradigan tangananing ikkinchi tomoni ham mavjudligi bu savolga yuqoridagi yechim javob bo'la olmasligiga ishora qiladi. Yanikim dunyo olimlari endi kashf qilayotgan kashfiyotlarni bizga allaqachon ochiqlab bergan diniy qarashlar yotadi. Bu o'z navbatida bizni bu ikki iboraning asl ma'no mazmunini teran anglashga yo'llanma

beradi. Din va Fan o'zaro bog'liqdir. Lekin dunyoda dinlar ko'pligi sababidan bir to'xtanga kela olishmaslik kelib chiqadi. Ilmiy nuqtai nazardan olib qarajak Ammo bizning va dunyoda din jihatidan yetakchilik dinlardan bo'lmish ISLOM dinimizda u quyidagicha ta'riflanadi:

“Nurilloh Turdiyev “Islom Nuri” jome masjidi imom xatibi 2010-yil. –Islomga ko'ra, ilm talab qilishlik har bir muslim va muslima uchun farz bo'lgan amallardandir. Dinimizda qaysi ilmlarni egallashga targ'ib etilgan?

-“ilm” so'zi Qur'oni karimda 765 marotaba takrorlanadi. Alloh o'z kalomida marxamat qiladi: “Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko'tarur...”. (Mujodala,11-oyat).

Islom chaqirayotgan ilm qanday ilm o'zi? Faqat diniy ilmmi? Yo'q, bu ilm bilimsizlikni yo'qotadigan barcha ilmlardir. Diniy ilmlar bo'lsa ham, dunyoviy ilmlar bo'lsa ham (tabiat ilmi, psixologiya, tarix, jug'rofiya, sotsiologiya, algebra va boshqalar) Alloh musulmonlarni mana shu barcha ilmlarni o'rganishga qiziqtiradi. Shoyadki, shu ilmlar orqali Allohning qudrati, ulug'ligini chuqur tushunsalar. Bundan tashqari, o'z xayotlarida shu ilmlardan manfaatdor bo'ladilar. Qur'on oyatlarida tabiiy ilmlarni o'rganishga chaqiriqlar bor”. Demak biz yuqorida keltirilgan dalillarga ko'ra xatto dinda ham ilm olishga, ilm yo'lidan borishga va unda bardavom bo'lishga chorlanadi. Inson ilm olishdan to'xtagan kun rivojlanishdan, kelajakdan uzilgan kun demakdir. Negaki atrofimizdagi tevarak olam sir sinoatlarga burkanib yotibdi va shu bilan birga zamon ham kundan kunga tobora rivojlanib kechagi bilgan sinoatlarimiz bugun uchun kamlik qilmoqda. Zamona zayli bilan kechagi qarashlar bugungi kunga zid kelgan vaziyatlar insoniyat bilan yuzlashmoqda va uning yechimi o'z navbatida yangi qarashlar uchun yetarli teran fikrga egalikni talab qilmoqda. Insoniyat paydo bo'lgan paytdan ya'ni evolutsiyaning ilk asrlaridanoq inson moslashish orqali bilimlar to'plamini yig'ib kelgan va u shu kunga kelib juda katta manbalarni tashkil qilmoqda hattoki uni o'rganib chiqishga bir inson umri yetkulik emas. Ilm ham bilim ham asli bilmoqlikning san'atidir. Ikkisi ham bir o'rinda inson uchun foydalilikni tashkil etadi ammo uni tog'ri yo'lda ishlatish ham lozim. Inson yangi ma'lumotlar oqimiga kirib borar ekan ushbu oqimda foydasi tegmaydigan yoki xavfli tashkilotlar tomonidan kiritiladigan axborotlarni ajarata bilishimiz uchun yaratgan, bizga boshqa jonzotlarda mavjud bo'lmagan “aql” deb ataluvchi oqni qoradan ajratishimizda eng katta muhim ahamiyat kasb etuvchi ne'matni ona qorni ekanimizayoq bizga in'om etadi va shu o'rinda uni ishlatishimiz joiz bo'ladi. Xo'sh qanday qilib boshqalar yecha olmaydigan masalalarni huddi bizga oxshagan odamlar yecha oladi? Buni javobi bitta va yagonadir. Kitob –aqlni o'tkirlash uchun juda yaxshi ermak va u sizdan ortiqcha jismoniy og'ir mehnat talab qilib o'tirmaydi huddi tanangizni chiniqtirish uchun o'zingizni qiynab jismoniy mashg'ulotlar qilgandek aqlingizga bunchalik bosim berish og'ir emas. Aqilli bo'lish uchun avvalo o'zingizga nima yoqadiyu yoki nima yoqmaydi avvalo shuni farqlay olishingiz darkor. Aks holda

o'zingiz yoqtirmagan kasb yoki yo'nalishga kirib qolganingizda zerikish, ishlashni, o'qishni hohlamaslik va kirib qolgan soxangizdan bezish kuzatiladi va siz bu soxadan butkul beziysiz va qolgan soxalar ham sizga shunday tuyulishni boshlaydi. Ilm va bilim asli taffakur qilishda shu maqsadlarda ham keng qo'llaniladi. Har turli tomonlama mantiqiy tanqidiy fikrlash esa turli soxadagi kitoblani o'qish orqali charxlanib boradi va tengdoshlaringizdan masalaga ikki tomonlama yondasha olishingiz orqali ajralib turasiz va bu sizning istiqbolli kelajagingiz uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Hulosa qilib shuni aytish mumkinki ilm va bilim inson hayotida davomida har soxada sizga yo'lingizni yorituvchi chiroq kabidir.

Foydalanilgan manbalar:

Toshkent shaxar "Islom nuri" jome masjidida imom hatibi Nurilloh Turdiyevning fikrlari 2010-yil.